

**“O‘zmilliybank” AJning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib
chiqish natijalari haqidagi 2023 yil bo‘yicha
HISOBOT**

2023 yil davomida “O‘zmilliybank” AJning korrupsiya xolatlari haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlar tahlil qilib borildi. Xususan, hisobot davrida:

- Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish Boshqarmasining Ishonch telefoni (78 148-00-89) orqali **4 ta** (Toshkent shahar 2, Jizzax viloyati 1, Samarqand 1) murojaat;
- Bankning web saytidagi “Korruptsiyaga qarshi kurashish” sahifasi orqali **10 ta** (Toshkent sh. 2, Qashqadaryo viloyati 6, Buxoro viloyati 2) murojaat kelib tushdi.

Yuqoridagilarni ko‘rib chiqish natijasida **13 ta** murojaat korruption holatlarga **taalluqli emasligi** sababli, Bankning tegishli tuzilmalariga yuborilgan.

Bankning veb sahifasidagi “Korruptsiyaga qarshi kurashish” bo‘limi orqali **1 ta** murojaat bo‘yicha ishchi guruh tuzilib **xizmat tekshiruvi** o‘tkazildi.

Xususan, xizmat tekshiruvi natijasida Bankning Buxoro viloyat va Romitan filiali xodimlari mijozga kredit ajratilishida o‘z lavozim vazifalarini lozim darajada bajarmasdan, mansab vakolatini suiiste’mol qilgan holda Bank manfaatlariga zarar yetkazib manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yib, O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, “Bir qarz oluvchi, o‘zarlo aloqador qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng ko‘p miqdori to‘g‘risida”gi Nizomi, Bankning Kredit Siyosati, “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish Siyosati”, “Korporativ etika kodeksi”, “Kreditlarni monitoring qilish tartibi” talablarini bir necha bor buzganligi, o‘zining shu harakatlari bilan bankning obro‘siga jiddiy putur yetkazilishiga sharoit yaratib bergenligi, Bosh ofisning tegishli buyrug‘iga asosan aybdor xodimlarga nisbatan tegishli choralar ko‘rilgan. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qismi 2-bandiga asosan o‘rtacha oylik ish haqining 30 foizi miqdorida “jarima” jazosi qo‘llanilgan.

Bank manfaatlariga zarar yetkazgan holda xodimlar o‘z lavozim vazifalaridan foydalaniib tanish-bilishchilik, o‘zlarining yaqin qarindoshlari yoki do‘stlariga noqonuniy imtiyozlar, kreditlar berish holatlari aniqlangan taqdirda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi haqida barcha bank xodimlari ogoxlantirilib kelinmoqda va kreditlash jarayonlarida qarz oluvchi bilan aloqador shaxslar

(mahalliychilik, do'stлari va ularning yaqin qarindoshlari) haqidagi ma'lumotlarning mavjudligi, garovining xaqqoniy baholanishi, kredit monitoringini qat'iy nizom talablariga asosan amalga oshirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

**Axborot va bank xavfsizligi departamenti
Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish
Boshqarmasi**